



O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK MEXANIZMLARINI SAMARALI BOSHQARISH

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich,

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,

iqtisod fanlari doktori professor,

Norbekova Gulmira Axmadovna,

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,

tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tizimini samarali boshqarishning muhim omillari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. DXSh modeli orqali infratuzilma loyihamalarini moliyalashtirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va innovatsion yechimlarni joriy etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga mos boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, boshqaruv mexanizmi, infratuzilma, investitsiya, ijtimoiy sheriklik, O'zbekiston

Abstract: This article analyzes the key factors for effective management of the public-private partnership (PPP) system in Uzbekistan, identifying existing challenges and proposing solutions. It highlights the role of PPPs in financing infrastructure projects, improving public service quality, and introducing innovative solutions. The study also emphasizes the need to develop management mechanisms adapted to Uzbekistan's context, based on international experience.

Key words: public-private partnership, governance mechanism, infrastructure, investment, social partnership, Uzbekistan

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida ta'lismi xizmatlarining strategik sohalardan biri ekanligi tobora ortib bormoqda. «Hozirga kelib, ta'lismi xizmatlari xalqaro bozorining hajmi 100 mlrd. AQSh dollarni tashkil etmoqda. «Inson kapitali» dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkish rivojlangan mamlakatlarda 70 foiz, o'rta daromadli mamlakatlarda 58 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmoqda» [1]. Bu esa ta'lismi xizmatlarini jadal rivojlantirish hayotiy zaruratga aylangan bir pallada, davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va tizimiga moslashtirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini bildiradi. Juhon miqyosida raqobat munosabatlarining kuchayib borishi ta'lismi xizmatlari ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish, ta'lismi tizimida uni tartibga solish orqali sifatlari xizmatlar rivojlanish tendensiyalariga erishish asosida bilim oluvchilarga qulay shart-sharoit yaratgan ta'lismi tizimida integratsion-



aloqalarni shuqurlashtirib borish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish eng muhim masalalardan biriga aylanmoqda. O'zbekistonda ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalişlarini belgilash, ta'lim xizmatlari ko'rsatishning davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish obyektiv zaruratga aylanib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "...ta'lim muassasalarini tashkil etishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak"ligini alohida ta'kidladilar. Bu vazifalarni bajarishda ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikchiligi asosida ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazaridan maktab, professional va oliv ta'lim tizimida davlat va xususiy sektor o'rtasida barqaror munosabatlarni shakllantirish, hududlarda bitiruvchilar raqobatbardoshlik darajasini oshirishda DXSHning ta'lim sohasidagi o'ziga xos xususiyatlari mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Juhonning rivojlangan davlatlari va Xalqaro tashkilotlari 2030-yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasini qabul qilgan bo'lib, unda «ta'lim tizimini boshqarishni, ta'lim sifatini uni baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu esa o'z navbatida jahon mamlakatlari uchun ta'lim tizimi tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini yanada takomillashtirish, samarali ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. ADABIYOTLAR TAHLILI Shu o'rinda jahon tajribalarida davlat-xususiy sherikligi tuchunchasini keng talqin qilinadi, jumladan, Juhon banki tomonidan berilgan ta'rifga e'tibor qaratamiz,: «Davlat-xususiy sherikchiligi - davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'rta yoki uzoq muddatli shartnomalar bo'lib, ular doirasida davlat sektorining javobgarlik sohasida bo'lgan, ammo xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar taqdim etiladi, bunda infratuzilmani rivojlantirish va (yoki) davlat xizmatlarini ko'rsatish masalalari o'rtasida vazifalarni aniq ajratish mavjud». Bu borada mamlakatimizda qonunshilik hujjalariiga e'tibor qaratsak, jumladan, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida keltirilganidek, "...davlat-xususiy sheriklik — davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi" deb keltirilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihasi - iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui ekanligi qayd qilingan . Bu borada iqtisodchi olima G.Utemuratovaning fikricha "Hozirgi vaqtida jahonning bozor iqtisodiyotiga ega ko'plab mamlakatlarida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tizimida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, bu o'zgarishlar iqtisodiyotning yangi institutsional tuzilmasini shakllantirmoqda. Bu esa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos shakli vujudga kelayotganligining ifodasi hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos shakli sifatida DXSHning turli xil shakllarini jadal rivojlanishi,



ularning iqtisodiyot soha va tamoqlarida keng ko‘lamda qo‘llanilishi o‘zaro hamkorlikning ushbu shaklini bozor iqtisodiyotining muhim xususiyati sifatida tan olish imkonini beradi [5]. “Ta’lim tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish har bir davlatning iqtisodiy hayotida va ta’lim xizmatlarini yetkazib berishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat byudjetining cheklanganlik sharoitida hamda aholining ta’lim sifati va normal hayot kechirishga bo‘lgan talabining cheksizlik holatida ushbu munosabatlarni rivojlantirish mamlakat ta’lim tizimi uchun asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Sherikchilik munosabatlarining hamohangligini ta’minalash mamlakat ta’lim tizimidagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarida davlat va biznes keng ko‘lamli masalalar, jumladan, bugungi kun tartibidagi va hozirgi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan vazifalar, shu bilan birqalikda, iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda ikkala tomon ham hamkorlik qilishdan manfaatdordir va bu, o‘z navbatida, jamiyat rivojida o‘ziga xos ustuvorliklar kasb etadi” honning rivojlangan mamlakatlarida davlat-xususiy sherikligini amalga oshirish uchun turli xil yondashuvlar, modellar, shakllar qo‘llaniladi. Bu borada asosan e’tibor biznes faoliyatiga yo‘naltiriladi, masalan, BRIKSda bu amaliyot ko‘proq kichik va o‘rta biznes rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. BRIKS mamlakatlari kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy o‘sish omili sifatidagi ahamiyatli deb hisoblashadi. Kichik va o‘rta korxonalar duch keladigan muammolarni hal qilish va ularning rivojlanishini rag‘batlantirish uchun turli DXSH tashabbuslarini amalga oshirdilar. Ular asosan, biznes faoliyatiga yo‘naltirilgan tashabbuslarini amalga oshirishda mikro va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash xizmati bilan xususiy sektor sub’yektlari bilan o‘qitish, konsalting, bozorlarni egallash, kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun hamkorlik qiladi va bu munosabatlar biznes korxonalarining raqobatbardoshli, barqarorligini saqlashga qaratiladi. “Ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihibarini amalga oshirish bugungi kunga kelib, ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihibarining asosiy turlari qo‘shma va xususiy universitetlarni tashkil etish, xususiy noshirlar tomonidan xalq ta’limi tizimi uchun kitoblar va qo‘llanmalarni nashr etish va ko‘paytirish, ilmiymadaniy markazlar qurish, shuningdek, xususiy maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish ob’yektlarini qamrab olmoqda. Bu o‘z navbatida bilimga asoslangan jamiyatning vujudga kelishi va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida ta’lim sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda. Zamonaviy jamiyatda ta’lim sohasining o‘rni uning kompetensiyalarini rivojlantirish, bilimlarni yaratish va tarqatish - zamonaviy jamiyatning asosiy resurslari bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda DXSh mexanizmlarini samarali boshqarish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish, shaffoflikni ta’minalash, xususiy sektor manfaatlarini inobatga olgan holda muvozanatli yondashuvni qo‘llash muhimdir. Mamlakatda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar ijobjiy natijalar bermoqda, biroq barqaror tizim yaratish uchun xalqaro standartlarga asoslangan kompleks yondashuv zarur.



REFERENCES

- 1) Suyunov D. X. Corporate governance mechanism: problems and solutions. Monograph // T.: Academia. – 2007. - T. 200.
- 2) Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Khoshimov. "Methodological aspects of assessing the effectiveness of corporate governance in joint-stock companies. Scientific electronic journal" Economics and innovation technologies " 2 (2018).
- 3) Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
- 4) Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management.European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS), Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No 09. September 2023 ISSN:2660-5570.
- 5) Suyunova D. D. Corporate management of self-regulating organizations in the field of digital technology use.Ichthysody tarkkiet and tanlil ilmiy electronic journal, July 31, 2024.<https://e-ITT.uz/index.PHP/eitt/article/view/1472/1379>
- 6) Suyunova D. D. problems of corporate governance in the field of using digital technologies.(International Scientific and Practical Conference on Business and Entrepreneurship Development, International Scientific and Practical Conference, 2022) December 23

